

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI INTELLEKTUAL
MULK AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida, shu jumladan mazkur sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4168-son [qaroriga](#) muvofiq intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish va umume’tirof etilgan xalqaro normalarni implementatsiya qilishga oid faoliyati qoniqarsiz deb topilganligi sababli Intellektual mulk agentligi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazildi.

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni hisobga olib:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) ijro etuvchi apparatining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 61 shtat birligidan iborat yangilangan tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziriga xodimlarning belgilangan cheklangan soni doirasida Agentlikning ijro etuvchi apparati tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Adliya vazirligi) va Agentlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha shtat birliklarini joriy etish huquqi berilsin.

2. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi holatini kompleks tahlil qilish, ushbu sohasini rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqish;

intellektual mulk sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

intellektual mulk masalalari bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni o‘zaro muhofaza qilish haqidagi xalqaro shartnomalarni tuzish orqali yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash;

intellektual mulk sohasidagi ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni o‘tkazishda ishtirok etish;

jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Agentlik:

intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi;

O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining shartnomalari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

b) Agentlik faoliyatiga umumiy rahbarlik va uni nazorat qilish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va Agentlik xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

v) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari — yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan patent bojlari va to‘lovlarning 20 foizi miqdoridagi mablag‘lar, O‘zbekiston

Respublikasining rezidentlari — yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan patent bojlari va to'lovlarning 80 foizi miqdoridagi mablag'lar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun amalga oshirilgan to'lovlar, intellektual mulk sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy jarima summolari, qonunchilikka muvofiq pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasiga belgilangan tartibda o'tkaziladi;

g) Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan va qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga asosan Agentlikni saqlab turishga, uning moddiy-texnika bazasini shakllantirish va mustahkamlashga, Agentlik xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishga hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.

4. Adliya vazirligi:

a) bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini hamda O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning patent bojlari va to'lovlaridan o'rnatilgan tartibda tushadigan mablag'larni yo'naltirish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

b) ikki hafta muddatda:

mazkur qarorning 3-bandi "v" kichik bandida ko'rsatilgan mablag'lar kelib tushishining alohida hisobini yuritish uchun tegishli bank va g'azna shaxsiy hisobvaraqlari ochilishini;

Agentlikning g'azna shaxsiy hisobvaraqasidagi qoldiq mablag'lar Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasi shaxsiy hisobvaraqasiga o'tkazilishini ta'minlasin;

v) ikki oy muddatda Agentlik xodimlarini belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish orqali Agentlikning intellektual mulk sohasida chuqur bilimlarga hamda amaliy ish tajribasi ega halol, tartib-intizomli va malakali kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlasin.

5. Agentlik faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan Adliya vazirligi va Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar belgilansin.

6. Agentlikka kuyidagi huquqlar berilsin:

davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;

davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonunbuzilishlar, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda malakali xorijiy mutaxassislarni ularga, istisno tariqasida, Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ish haqini milliy valyutada yoki xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazish orqali chet el valyutasida to'lagan holda, xodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish.

(6-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyuldagi PF-6021-son Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son — 2020-yil 1-avgustdan kuchga kiradi)

7. Adliya vazirligining hududiy bo'linmalariga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish;

intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinishini, mualliflarning va boshqa huquq egalari huquqlari muhofaza qilinishini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish, chiqarish, realizatsiya qilishga qarshi kurashishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashish orqali tegishli choralar ko'rish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining intellektual mulk sohasini tartibga solishdagi faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash;

aholi o'rtasida intellektual mulk muhofazasi sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish.

8. Adliya vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

"Intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazi" davlat unitar korxonasini "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi qoshidagi Intellektual mulk konsultativ markazi" davlat unitar korxonasi etib qayta nomlash;

2019/2020 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat yuridik universitetida "Intellektual mulk huquqi" mutaxassisligi bo'yicha yangi magistratura yo'nalishini ochish va unga bazaviy oliy ma'lumotdan qat'i nazar intellektual mulk sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash vazifasini yuklash;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markaziga intellektual mulk sohasidagi kadrlarning malakasini, shu jumladan pullik asosda oshirish bo'yicha qo'shimcha vazifa yuklash.

9. Belgilab qo'yilsinki:

a) Adliya vazirligi huzurida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri rais hisoblanadigan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan apellatsiyalarni sudgacha ko'rib chiquvchi Apellatsiya kengashi tashkil etiladi;

Apellatsiya kengashi tarkibiga intellektual mulk sohasidagi mustaqil olimlar va mutaxassislar kiradi;

Apellatsiya kengashining tarkibida Adliya vazirligi va Agentlik xodimlari soni Apellatsiya kengashi a'zolari umumiy sonining o'ttiz foizidan oshmasligi lozim;

b) quyidagi mezonlarga muvofiq keluvchi tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi (keyingi o'rinlarda — tovar belgisi) O'zbekiston Respublikasida hammaga ma'lum deb e'tirof etiladi:

tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turi O'zbekiston Respublikasining amaldagi va (yoki) potensial iste'molchilari tomonidan yoxud tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turi uni tarqatilishini ta'minlashda ishtirok etayotgan shaxslar tomonidan yoxud tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turiga aloqador bo'lgan ishbilarmonlar doirasi tomonidan tanib olinishi, bunda tovarning sifat darajasi haqida tushuncha mamlakatdagi tovar belgisi bilan bog'liq bo'lishi kerak;

avvaldan xos bo'lgan yoki faol foydalanish natijasida vujudga kelgan yuqori farqlanish xususiyati;

O'zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan Internet tarmog'ining milliy segmenti domen nomlari tizimida tovar belgisidan keng foydalanish va uning reklama qilinishi;

respublikada uzoq muddat davomida va faol foydalanish natijasida vujudga kelgan tijorat qiymati;

v) Apellatsiya kengashi tomonidan qaror qabul qilishda yuqoridagi mezonlar bilan bir qatorda mazkur qarorda aks etmagan ushbu sohadagi xalqaro standartlar, shu jumladan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining hujjatlariga muvofiq qo'shimcha mezonlar inobatga olinishi mumkin.

10. Agentlik Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59-uyga beg'araz foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga [2-iloraga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

14. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 1-iyul,
PQ-4380-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-son qaroriga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining
TUZILMASI**





Agentlik markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 89 birlik. Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.

(1-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2021-y., 07/21/4965/0074-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2761-son qarori **4-bandi** o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son **qarorida**:

a) **1-band** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"intelektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish";

b) **3-bandda**:

to'rtinchi xatboshidagi "158" raqami "163" raqami bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati, adliya organlari va muassasalarining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchi sifatida jalb qilish;

malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularga ish haqi miqdori hamda boshqa to'lovlarni xorijiy valyutada belgilash huquqi berilsin.

v) 1-ilovada:

8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

Vazirlik markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari;

Davlat xizmatlari agentligi;

Intellectual mulk agentligi;

Huquqiy siyosat tadqiqot instituti;

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi;

“Adolat” huquqiy axborot markazi” DUK;

“Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” DUK;

davlat notarial idoralari va arxivlari;

Yuristlar malakasini oshirish markazi;

Toshkent davlat yuridik universiteti;

yuridik kollejlari;

Akademik litsey;

“Inson va qonun” gazetasi tahririyati” DUK.

Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Vazirlikka bo‘ysunadilar”;

9-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“intelektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish”;

10-bandda:

8-kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8) huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligini yo‘q qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ‘ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish sohasida:

davlat organlari va tashkilotlar tomonidan huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat bo‘yicha olib borilgan ishlarni o‘rganadi, shuningdek, ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotdan keng ko‘lamda foydalanishini ta‘minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida xabardor qilishning sifatini tubdan oshirish, ushbu faoliyatni tashkil qilishda prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

aholining turli qatlamlari, shu jumladan tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida xabardor qilishning sifatini tubdan yaxshilash maqsadida keng jamoatchilik fikrini o‘rganadi va tahlil qiladi, ushbu sohada ishlarni yanada takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqadi”;

quyidagi mazmundagi 17-kichik band bilan to‘ldirilsin:

“17) intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

intelektual mulk sohasini rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

intellektual mulk sohasining rivojlanish holatini, shu jumladan mazkur sohadagi xalqaro reytinglar va indekslar mezonlari va metodologiyalari asosida har tomonlama tahlil qilish va baholashni amalga oshiradi;

intellektual mulk sohasida qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi;

intellektual mulk sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ahvolini o'rganadi;

intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

intellektual mulk sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyotini o'rganadi va tahlil qiladi;

intellektual mulk sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyati samaradorligini nazorat qilish va baholashning amalga oshirilishini tashkil etadi";

20-band quyidagi mazmundagi 19 — 22-kichik bandlar bilan to'ldirilsin:

"19) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga milliy intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish;

20) intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinishini, mualliflarning va boshqa huquq egalarining huquqlari muhofaza qilinishini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan kontrafakt mahsulotlarini ishlab chiqarish, tarqatish va realizatsiya qilishga qarshi kurashda vakolatli davlat organlariga ko'maklashish orqali tegishli chora-tadbirlar ko'rish;

21) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining intellektual mulk sohasidagi faoliyatini tartibga solishda huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash;

22) aholi o'rtasida intellektual mulk muhofazasi sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish";

34-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik natijalari to'g'risida hisobot beradi";

37-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Vazirlikning hududiy bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa hududiy davlat organlari bilan hamkorlik qiladi";

46-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"46. Vazirlik huzurida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri rais hisoblangan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan apellatsiyalarni sudgacha ko'rib chiquvchi Apellatsiya kengashi tashkil etiladi.

Apellatsiya kengashining tarkibiga intellektual mulk sohasidagi mustaqil olimlar va mutaxassislar kiradi. Apellatsiya kengashi tarkibida adliya organlari va muassasalarining xodimlari soni Apellatsiya kengashi a'zolari umumiy sonining o'ttiz foizidan oshmasligi lozim.

Vazirlikda boshqa kengash, maslahat va ekspertlik organlari tuzilishi mumkin";

g) 2 va 3-ilovalar quyidagi tahrirda bayon etilsin:


"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining TASHKILIY TUZILMASI



“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparatining
TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 163 birlik.

* Markaziy apparatning umumiy shtatlar soniga kirmaydi.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin”.

d) 4-ilovaning **izohi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.”;

e) 5-ilovaning **izohi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.”;

j) 6-ilovaning **izohi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin”.

3. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 442-son **qarorida**:


a) 2-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirishga” so‘zlari “adliya organlari faoliyatini takomillashtirishga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **3-banddagi** “25” raqami “20” raqami bilan almashtirilsin;

v) **ilova** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi 442-son qaroriga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti
TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarning umumiy cheklangan soni — 20 birlik”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-son qaroriga
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim
qarorlari**

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1536-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2637-son qarori.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son; 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son; 29.01.2021-y., 07/21/4965/0074-son)